

UO'K: 796.011.

«JISMONIY MADANIYAT: TARBIYA, TA'LIM, MASHG'ULOT» XALQARO ILMIY-USLUBIY JURNALI – O'ZBEKISTONDA ILMIY- PEDAGOGIK KADRLARNI MUSTAHKAMLASH BO'YICHA TAH- RIR SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

MADJIDOV I.U., texnika fanlari doktori, professor, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rektori, jurnal bosh muharriri, Toshkent

AYRAPETYANS L.R., pedagogika fanlari doktori, professor, jurnal ilmiy maslahatchisi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Аннотация

Maqolada O'zbekistonda ilmiy-pedagogik kadrlar bilan samarali ishlash uchun, «Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, mashg'ulot» xalqaro ilmiy-uslubiy jurnali tahririyat siyosatini jurnalning ilmiy sarlavhalarini kengaytirish, iqtidorli yoshlar va ularning ustozlari bilan ochiq ilmiy treninglar o'tkazish, jurnal tahririyatiga dunyoning turli davlatlaridan tajribali olimlarni jalb etish orqali kuchaytirish masalalari muhokama qilinadi.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос об усилении редакционной политики международного научно-методического журнала «Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, mashg'ulot», посредством расширения научных рубрик журнала, проведения открытых научных тренингов с одаренной молодежью и их наставниками, привлечения опытных учёных из разных стран мира в редакционную коллегию журнала для эффективной работы с научно-педагогическими кадрами в Узбекистане.

Annotation

The article discusses the issue of strengthening the editorial policy of the international scientific and methodological journal "Physical culture: upbringing, education, training", by expanding the scientific headings of the journal, conducting open scientific trainings with gifted youth and their mentors, attracting experienced scientists from around the world to the editorial board of the journal for effective work with scientific and pedagogical staff in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: *ilmiy-uslubiy jurnal, tahririyat hay'ati, ilmiy-pedagogik kadrlar, tahririyat siyosati, hamkorlar.*

Ключевые слова: *научно-методический журнал, редакционная коллегия, научно-педагогические кадры, редакционная политика, партнёры.*

Key words: *scientific and methodological journal, editorial board, scientific and teaching staff, editorial policy, partners.*

Ushbu maqola asosan iqtidorli talabalar va ularning ilmiy rahbarlari hamda jurnalning umumiy pedagogika, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ularning ilmiy salohiyatini oshirishga qodir o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Yosh ilmiy izlanuvchilar (magistrantlar, doktorantlar va b.) har qanday anjuman, simpozium, uchrashuv va hokazolarda o'z ilmiy natijalari haqida hisobot berish uchun avvalo o'z tadqiqotlarini ilmiy-uslubiy nashrlarda namoyish etishlari kerak. Bunday holda, ularning xabarlari barcha nuqtayi nazardan samaraliroq bo'ladi, albatta.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Rektorati tashabbusi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ko'magida 2022-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan o'sha paytdagi «Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, mashg'ulot» respublika jurnali, 2022-yil dekabr oyida esa A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida ro'yxatdan o'tib, ISSN raqami berildi va «Matbuot» bilan jurnalni O'zbekistonning barcha viloyatlari va Toshkent shaharlarida tarqatish va obuna qilish bo'yicha shartnoma imzolandi. Jurnal ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng tahririyat tuzilib, O'zbekiston Milliy universiteti Rektori, professor I.U.Majidov jurnalning bosh muharriri etib tasdiqlandi.

«Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, mashg'ulot» respublika jurnali O'zbekiston

Respublikasining bosma nashrlarni ochish to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan barcha qoidalarga muvofiq 2023-yil yanvar oyidan nashr etilishni boshladi.

Jurnalning birinchi soni nashr etilgandan so'ng 13.00.00 (Pedagogika fanlari), shu jumladan 13.00.04 (Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati) mutaxassisligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan.

Jurnalning <https://journalsport.nuu.uz/> nomli veb-sayti mavjud bo'lib, u quyidagi hujjatlardan iborat: tahririyat hay'ati; jurnal haqida ma'lumot (mualliflar uchun qo'llanma, nashr etikasi va suiste'mol qilish holatlari); jurnallar; yangiliklar; hamkorlar (uch tilda).

Jurnal quyidagi ilmiy bo'limlardan iborat: jismoniy tarbiya va sport solnomasi; pedagogik kadrlarni tayyorlash; ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ta'lim yo'nalishlari va darajalari bo'yicha); sport fani: muammolar va istiqbollar; kasb-hunar ta'limi metodologiyasi va texnologiyasi; sport mashg'ulotining texnika, taktika va uslubiyati; jismoniy tarbiya va sportning tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik asoslari; bolalar-o'smirlar sporti; olimpizm; jismoniy tarbiya muammolari; ta'lim iqtisodiyoti va menejment; maxsus maktabgacha pedagogika; ommaviy jismoniy tarbiya va sport.

Shuni ta'kidlash kerakki, jurnal uch tilda -

o'zbek, rus va ingliz tillarida bir yilda 4 marta, ya'ni har chorakda nashr etiladi. Hajmi 48 betdan 64 betgacha, tiraji 500-700 nusxa.

Maqola taqriz bilan birga jurnalga yuborilgach, tahririyat hay'ati a'zolaridan biri ushbu maqolani (antiplagiat, dolzarbligi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va b.) ko'rib chiqadi va tuzatishlar yoki o'zgartirishlar kiritib, muallif bilan bog'lanadi va ilmiy-uslubiy maqolada o'zgartirish yoki to'ldirish zarurligi to'g'risida unga xabar beradi. Keyin ilmiy maqola tayyorlangan tillarni biladigan musahhihlarga beriladi. Tekshirishdan so'ng maqola nashrga tayyor hisoblanadi.

2023-yil sentabr oyida jurnalning ikkita soni nashr etilgandan so'ng O'zbekiston Milliy universiteti «Taekvondo va sport faoliyati» fakulteti ko'magida tahririyat hay'ati a'zolari tomonidan fakultet talabalari va magistrantlari bilan ilmiy-uslubiy trening o'tkazdilar, unda 250 dan ortiq talaba va ularning ustozlari ishtirok etdi. Mazkur yig'ilishda tahririyat hay'ati a'zolari tomonidan jurnalda ilmiy maqolalar tayyorlash bo'yicha barcha yangilik va talablar tushuntirildi. Shuningdek, ushbu jurnalning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi slaydlar namoyish etildi. Uchrashuv ikki tilda (o'zbek, rus) bo'lib o'tdi. Suhbatdan so'ng talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, tahririyat a'zolaridan javob oldilar.



Foto. Talabalar va magistrantlar bilan ilmiy-uslubiy trening.

Ikki yil davomida jurnalning 8 ta soni – 81 ta maqola chop etilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, ilmiy maqolalarning 46% Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti xodimlari tomonidan yozilgan, 9% boshqa mamlakatlardan olingan. O’zbek tilida – 30%, rus tilida – 61% va 9% – ingliz tilida. Talabalar, magistrantlar va doktorantlar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar faqat 10% ni tashkil qiladi. Bu esa mazkur ilmiy-usubiy jurnalning muammosi hisoblanadi. Shu bois yosh olimlar (magistrantlar, doktorantlar, izlanuvchilar) ustozlari rahbarligida ilmiy izlanishlar bilan jiddiy shug’ullanishlariga ko’proq e’tibor qaratishlari zarur. Aslida, **ushbu jurnal ular uchun yaratilgan.**

2024-yil aprel oyida ma’lumotlar bazalari, elektron kitoblar, jurnallar, raqamli arxivlar va ilmiy kontentga onlayn kirish uchun samarali qidiruv vositalarini yetkazib berishda yetakchi global yetkazib beruvchi Amerikaning «EBSCO» kompaniyasi bilan hamkorlik shartnomasining imzolanishi jurnal uchun muhim voqea bo’ldi. «EBSCO» 12000 dan ortiq yetakchi ilmiy jurnallarni, shu jumladan 7000 ta taqrizlangan jurnallarni o’z ichiga oladi. Shu munosabat bilan «Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta’lim, mashg’ulot» ilmiy-uslubiy jurnaliga xalqaro maqom berildi.

Joriy yilning 19-oktabr kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A.Xodjayevning Toshkentdagi xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi doirasidagi uchrashuvda so’zlagan nutqiga e’tibor berish muhim. U 2016-yildan 2024-yilgacha bo’lgan vaqtda O’zbekistonda jurnallar soni 309 tadan 866 taga, telekanallar soni 65 tadan 89 taga, internet nashrlari soni 395 tadan 738 taga ko’paygani haqida to’xtalib o’tdi. 6 ta yangi axborot agentligi ochildi. Shu bilan birga, gazetalar soni 691 tadan 600 taga (15%ga) va radiostansiyalar soni 35 tadan 29 taga (25%ga) kamaydi.

A.Xodjayev ilgari bosma nashrlarning aksariyati davlat subsidiyalari va kelishuvlari asosida nashretilganligiga e’tibor qaratdi. Bugungi kunda ma’lumotlar mavjud va ular ko’proq raqamli texnologiyalar yordamida uzatiladi.

Bunda xarajatlar kamayib, ma’lumotlarni uzatish esa sezilarli darajada tezlashdi. Ammo, shunga qaramay, u bosma ommaviy axborot vositalarining an’anaviy matbuotga o’rganib qolgan o’z auditoriyasi hali ham borligini ta’kidladi: «Ular qisman elektron formatga o’tishi va qog’oz nashrlar ishlab chiqarishni qisqartirishi mumkin, ammo gazeta va jurnallarning o’z o’quvchilari bor, ular ma’lum miqdorda qoladi va butunlay yo’qolmaydi. Bu dunyoda umumiy tendensiya».

Shunday qilib, O’zbekistonda ishlab chiqarilayotgan matbaa mahsulotlari hali ham mashhur, degan xulosaga kelish mumkin. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida chop etilayotgan «Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta’lim, mashg’ulot» xalqaro ilmiy-uslubiy jurnali universitetning byudjet mablag’lari hisobidan emas, balki ushbu jurnalni chop etishda va takomillashishida ko’maklashayotgan hamkorlarimiz hisobidan chop etilayotganini ta’kidlash lozim.

O’zbekistonda ilmiy-pedagogik kadrlarni mustahkamlash uchun jurnal tahririyat hay’atidan quyidagilar talab etiladi:

1. Umumiy pedagogika sohasidan izlanuvchilar oldida turgan birlamchi ilmiy vazifalardan kelib chiqib, jurnalning ilmiy sarlavhalarini kengaytirish.

2. Universitet ilmiy bo’limi va O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi a’zolari bilan birgalikda ushbu jurnalni va unda tegishli ilmiy materiallar nashrlarini ommalashtirish uchun jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va amaliyoti hamda umumiy pedagogikaga oid turli mavzularda iqtidorli yoshlar bilan muntazam ravishda ilmiy treninglar o’tkazish.

3. Ilmiy-uslubiy tajriba almashish shaklida tahririyat hay’ati tarkibiga dunyoning turli davlatlaridan tajribali olimlarni jalb qilish.

4. “CrossRef” xalqaro ma’lumotlar bazasiga kirish va maqolalarni elibrary ilmiy elektron kutubxonasiga joylashtirish.

5. 2025-2026-yillarda nashr tirajini 1200 nusxaga yetkazish.